

PAPER

FRANSUZ MAQOLLARINING MADANIY-PRAGMATIK XUSUSIYATLAR

Norboyeva Nuriniso Usan qizi¹, *

¹Researcher

* nnuriniso2001@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada fransuz maqollarining pragmatik-semantik xususiyatlari lingvokulturologik va kommunikativ nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Maqollar nafaqat xalq donishmandligini aks ettiruvchi folklor janri, balki muloqot jarayonida maslahat, ogohlantirish, tanbeh va ishontirish kabi nutqiy aktlarni amalga oshiruvchi samarali vosita sifatida ko'riladi. Tadqiqot davomida fransuz tilidagi maqollarning turli vazifalari misollar asosida izohlanib, ularning ijtimoiy-nutqiy hodisa sifatidagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, maqollarni pragmatik jihatdan o'rganish xalq madaniyati, qadriyatlarini va tarixiy tajribasini saqlashda tutgan o'rni ham yoritilgan.

Key words: fransuz maqollari, pragmatika, lingvokulturologiya, maslahat, ogohlantirish, tanbeh, nutqiy akt, muloqot, xalq donishmandligi, kommunikativ funksiyalar.

Kirish

Til – insoniyatning eng qadimiy va eng mukammal ijtimoiy hodisalaridan biridir. Unda nafaqat kundalik aloqa vositasi sifatida, balki xalqning mentaliteti, dunyoqarashi, qadriyatlarini va tarixiy tajribasi mujassam bo'ladi. Xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va barqaror janrlaridan biri bo'lgan maqollar millat tafakkurining "konsentrlashgan shakli" sifatida alohida o'rin tutadi. Maqollar nafaqat tilning estetik qatlami, balki uning kommunikativ-pragmatik imkoniyatlarini ham

ochib beradi. Chunki ular muloqot jarayonida ma'lum nutqiy aktlarni amalga oshirish uchun qo'llanadi: maslahat berish, ogohlantirish, tanbeh qilish, ishontirish va boshqalar. Bu jihatdan maqollar J. L. Ostin va J. R. Searle tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy aktlar nazariyasi bilan bevosita bog'lanadi. Fransuz maqollari fransuz xalqining ko'p asrlik hayot tajribasi, ijtimoiy munosabatlari va madaniy qadriyatlarini mujassam etadi. Ularning semantik qatlamini o'rganish kifoya emas, balki pragmatik tahlil ham muhim. Masalan, «Mieux vaut prévenir que guérir» ("Davolashdan ko'ra,

Compiled on: October 3, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Humanities* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

ogohlantirish yaxshiroq”) maqoli o‘zbek tilidagi «Kasallikdan saqlanish davolashdan oson» degan hikmatga o‘xshashdir. Ammo fransuz tilida bu maqol ko‘proq profilaktik tavsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy gigiyena va ehtiyotkorlik madaniyatini targ‘ib qilishda ishlatiladi. Demak, bir qarashda oddiy maslahat bo‘lib ko‘ringan bu maqol aslida jamiyatdagi sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

Metodlar

Tadqiqotda lingvokulturologik va pragmatik tahlil usullari qo‘llanildi.

- Tanlab olingan materiallar: fransuz tilidagi ko‘plab maqollar (hayvon obrazi, vaqt, mehnat, insoniy munosabatlar kabi tematik guruhlar bo‘yicha).

- Yondashuv: maqollar semantik mazmun bilan bir qatorda ularning pragmatik funksiyalari (maslahat, ogohlantirish, tanbeh, ishontirish, dalillash) bo‘yicha tasniflandi.

- Taqqoslash: ayrim maqollar o‘zbek maqollari bilan qiyosiy o‘rganildi, milliy mentalitetdagi umumiylik va farqlar ko‘rsatildi.

Natijalar

Maqollarni madaniy-pragmatik tahlil qilish — ularning semantik strukturasidan tashqari, ular orqali ifodalanayotgan milliy qadriyatlar, dunyoqarash va ijtimoiy me‘yorlarni ham ochib berish imkonini beradi. Shu sababli, ushbu maqolada fransuz maqollari madaniy-pragmatik jihatdan tahlil qilinadi, ularning muloqotdagi vazifalari va fransuz mentalitetidagi o‘rni ko‘rsatiladi. Fransuz maqollari xalqning dunyoqarashini, ijtimoiy munosabatlarini va hayotiy tajribasini ifodalovchi madaniy kod sifatida qaraladi. Ular orqali millat o‘z tarixiy xotirasini, qadriyatlarini va kundalik turmush tarzini avloddan-avlodga yetkazib keladi. Fransuz maqollarida hayvon obrazi juda ko‘p uchraydi. Bu obrazlar orqali odamlarning xarakteri, odatlari va ijtimoiy munosabatlari tasvirlanadi.

“À bon chat, bon rat.” – “Yaxshi mushukka munosib sichqon.”

Bu maqol kuchli raqib kuchli qarshilikka duch kelishini bildiradi (ogohlantirish akti)

“Quand le chat n’est pas là, les souris dansent.” – “Mushuk yo‘qda sichqonlar raqsga tushadi.” Nazorat bo‘lmasa, tartib buzilishini bildiradi (tanbeh/ogohlantirish).

“Les loups ne se mangent pas entre eux.” – “Bo‘rilar bir-birini yemaydi.”

Bir xil manfaatdagi odamlar bir-biriga zarar yetkazmaydi (ijtimoiy qadriyat).

Bu maqollarda hayvonlar orqali inson xatti-harakatlari talqin qilinadi. Xuddi o‘zbek maqollaridagi “Bo‘ri bo‘ridan tug‘adi”, “Mushukning ko‘zi go‘shda” kabi obrazlar singari, fransuzlarda ham hayvonlar ijtimoiy munosabatlarning ramzi hisoblanadi.

Fransuz xalq falsafasida vaqt va sabr markaziy o‘rin tutadi. Bu qadriyat ko‘plab maqollarda ifodalanadi.

“Tout vient à point à qui sait attendre.” – “Kutishni bilgan odamga hamma narsa vaqtida keladi.” Sabr va toqatga da‘vat.

“Le temps, c’est de l’argent.” – “Vaqt – bu pul.” Vaqtни qadrlash, samaradorlik madaniyati.

“Il n’y a que le premier pas qui coûte.” – “Faqat birinchi qadam qiyin. Qiyinchilikni yengish, hayotiy faoliyatni boshlashga undovchi maslahat.

Bu maqollar fransuzlarning “vaqt – inson hayotining eng katta boyligi” degan qarashini ko‘rsatadi.

Fransuz maqollarida mehnat va hunar qadriyat sifatida ko‘p ulug‘lanadi.

“On n’apprend pas aux vieux singes à faire la grimace.” – “Qari maymunga yuz o‘ynashni o‘rgatib bo‘lmaydi.” Tajribali odamni o‘rgatishga hojat yo‘q (tanbeh).

“C’est en forgeant qu’on devient forgeron.” – “Temirchi temir urishda temirchi bo‘ladi.” Tajriba orqali bilim orttirilishini bildiradi.

“À l’œuvre on connaît l’artisan.” – “Ustani ishidan bilishadi.”

Mehnat va kasb-hunar qadriyatini targ‘ib qiladi.

Mehnatga oid bunday maqollar fransuz xalqining tarixan hunarmandchilik va ishlab chiqarishga asoslangan jamiyat ekanidan dalolat beradi.

Fransuz maqollarida insonlararo munosabatlar, do‘stlik, birdamlik va ijtimoiy axloqiy me‘yorlar ham o‘z aksini topgan.

“Dis-moi qui tu hantes, je te dirai qui tu es.” – “Kimlar bilan yurishingni ayt, sen kimligingni

aytaman.” Atrof-muhit va do‘stlarning ta‘sirini bildiradi.

“*L’union fait la force.*” – “Birlik kuchdir.” Jamiyatda birdamlikning ahamiyati.

“*Charité bien ordonnée commence par soi-même.*” – “Yaxshilik qilish o‘z-o‘zidan boshlanadi.” O‘zini e‘zozlash orqali boshqalarga yaxshilik qilish mumkinligini ifodalaydi.

Bu maqollar fransuz madaniyatida ijtimoiy mas‘uliyat, birdamlik va shaxsiy axloqiy burch tushunchalari kuchli ekanini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, fransuz maqollari xalqning tarixiy tajribasi va qadriyatlarini aks ettiruvchi madaniy ko‘zgudir. Ularning obrazlarida tabiat, hayvonot, vaqt, mehnat va jamiyat tushunchalari asosiy madaniy kod sifatida mustahkamlangan.

Maqollar faqatgina xalq donishmandligini emas, balki ma‘lum kommunikativ maqsadni ham amalga oshiradi. J. L. Ostin ta’kidlaganidek, til orqali “so‘z bilan ish bajariladi”. Demak, fransuz maqollari ham turli nutqiy aktlarni bajaradi: maslahat, ogohlantirish, tanbeh, ishontirish va dalillash.

Maslahat – maqollarning eng ko‘p tarqalgan pragmatik funksiyalaridan biridir. Ular suhbatdoshni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, xatti-harakatni tartibga solish uchun qo‘llanadi.

“*L’appétit vient en mangeant.*” – “Ishtaha ovqat yeyishda keladi.” Ishni boshlashga undovchi maslahat.

“*Qui ne risque rien n’a rien.*” – “Tavakkal qilmagan hech narsa topmaydi.” Tavakkal qilishga undash.

“*À chaque jour suffit sa peine.*” – “Har kunning tashvishi o‘ziga yetadi.”

Insonni ortiqcha tashvishdan saqlashga maslahat.

“*À cœur vaillant rien d’impossible.*” – “Botir yurakka hech narsa imkonsiz emas.” Qiyinchilikdan qo‘rqmaslikni maslahat qiladi.

“*Petit train va loin.*” – “Sekin yuruvchi uzoqqa boradi.”

Sabr va izchillikka maslahat beradi.

Fransuz maqollarida ogohlantirish akti ham juda kuchli ifodalangan. Ular insonni noto‘g‘ri yo‘ldan qaytarish, oqibatni ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

“*Pierre qui roule n’amasse pas mousse.*” – “Aylanib yuruvchi tosh mox yig‘maydi.” Beqaror odam barqarorlikka erishmaydi.

“*Qui dort dîne.*” – “Uxlash – ovqat yeyishning o‘rnini bosadi.”

Dangasalikka qarshi ogohlantirish.

“*Qui vole un œuf vole un bœuf.*” – “Tuxum o‘g‘irlagan buqa ham o‘g‘irlyadi.”

Kichik gunoh katta jinoyatga eltishini bildiradi.

“*Après la pluie, le beau temps.*” – “Yomg‘irdan keyin yaxshi ob-havo keladi.”

Umidsizlikdan ogohlantirish va tasalli.

“*On récolte ce que l’on sème.*” – “Nima eksang, shuni o‘lasan.”

Oqibatdan ogohlantirish akti.

Maqollar orqali suhbatdoshni tanqid qilish yoki tartibga chaqirish ham mumkin. Tanbeh ohangida ishlatiladigan maqollar ijtimoiy axloqiy nazoratni kuchaytiradi.

“*À cheval donné, on ne regarde pas les dents.*” – “Sovg‘a otning tishiga qaramaydi.”

Minnatsiz bo‘lishni tanbeh qiladi.

“*Il ne faut pas vendre la peau de l’ours avant de l’avoir tué.*” – “Ayini o‘ldirmasdan terisini sotma.” Oldindan maqtanishni tanqid qiladi.

“*Trop de paroles, peu d’actions.*” – “Ko‘p so‘z, kam amal.”

Faqat gapirib, ish qilmaydiganlarni tanbeh qiladi.

“*On ne peut pas être au four et au moulin.*” – “Bir paytning o‘zida tandirda ham, tegirmonda ham bo‘lib bo‘lmaydi.” Ikki narsaga birday ulgura olmaydiganlarga tanbeh.

“*L’habit ne fait pas le moine.*” – “Kiyim rohib qilmaydi.”

Tashqi ko‘rinishga aldanmaslikka tanbeh.

Fransuz maqollari ko‘pincha suhbatdoshni ishontirish va dalilni kuchaytirish uchun ishlatiladi.

“*Les paroles s’envolent, les écrits restent.*” – “So‘z uchadi, yozuv qoladi.”

Yozma dalilning ahamiyatini mustahkamlaydi.

“*Les bons comptes font les bons amis.*” – “Hisob-kitob yaxshi bo‘lsa, do‘stlik ham yaxshi bo‘ladi.” Ishontirish va dalillash vositasi.

“*La vérité sort de la bouche des enfants.*” – “Haqiqat bolalar og‘zidan chiqadi.” Sodda va rostgo‘y so‘zga ishontiradi.

“*L’union fait la force.*” – “Birlik kuchdir.” Jamiyatni birlashtirishga xizmat qiladi.

“*L’habitude est une seconde nature.*” – “Odat – ikkinchi tabiatdir.”

Fikrni kuchaytiruvchi ishontirish akti.

Maqollar muloqotda dalil keltirish, o'z fikrini asoslashda keng ishlatiladi.

“Les grandes douleurs sont muettes.” – “Katta dardlar jim bo'ladi.”

Ichki iztirobni dalil sifatida ko'rsatadi.

“Loin des yeux, loin du cœur.” – “Ko'zdan yiroq – ko'ngildan yiroq.”

Masofaning his-tuyg'uga ta'sirini dalillaydi.

“Chose promise, chose due.” – “Vada – qarz.” So'zga sodiqlikni dalillash.

“Tel père, tel fils.” – “Otasi qanday bo'lsa, o'g'li ham shunday.”

Nasldan naslga o'tuvchi xususiyatlarni asoslash.

“La faim chasse le loup hors du bois.” – “Ochlik bo'rini o'rmondan chiqaradi.” Zarurat insonni qiyin qarorga majbur qilishini dalillaydi.

Shunday qilib, fransuz maqollari pragmatik jihatdan ko'p funksiyali bo'lib, ular maslahat, ogohlantirish, tanbeh, ishontirish va dalillash kabi kommunikativ aktlarni amalga oshiradi.

Muhokama

Fransuz maqollari pragmatik jihatdan ko'p funksiyali bo'lib, ularning qo'llanishi ijtimoiy axloqiy nazorat, maslahat berish, ogohlantirish va dalillash kabi muloqot vazifalarini samarali bajaradi.

Masalan:

• *«Tout vient à point à qui sait attendre.»* sabrmatonatga chaqirsa,

• *«Quand le chat n'est pas là, les souris dansent.»* nazorat yo'qligida tartibsizlik yuz berishini ogohlantiradi.

Bu maqollar nafaqat til birliklari, balki xalq donishmandligi, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini avlodlar avlodga yetkazuvchi madaniy kod sifatida qaraladi.

Fransuz va o'zbek maqollaridagi umumiylik shuni ko'rsatadiki, har ikki xalq ham hayvon obrazi, vaqt, mehnat va do'stlik timsollaridan foydalanadi, biroq ularning pragmatik maqsadi milliy mentalitetga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin.

Xulosa

Fransuz maqollari xalq donishmandligini mujassamlashtiruvchi lingvokulturologik birlik bo'lish bilan birga, pragmatik jihatdan nutqiy

aktlarni amalga oshiruvchi vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Ular:

- maslahat berish,
- ogohlantirish,
- tanbeh qilish,
- ishontirish va dalillash vazifalarini bajaradi.

Demak, fransuz maqollarini madaniy-pragmatik nuqtayi nazardan o'rganish xalq tafakkurini, qadriyatlarini va ijtimoiy me'yorlarini yanada chuqur anglash imkonini beradi. Shunday qilib, fransuz maqollari xalq madaniyatining in'ikosini berish bilan birga, kommunikativ jarayonda nutq egasiga tinglovchini ta'sirchan usulda ishontirish imkonini ham yaratadi. Ularning mazmuniy va pragmatik jihatdan o'rganilishi tilshunoslikda xalq og'zaki ijodining nutqiy aktlar nazariyasi bilan bog'liq holda tahlil qilinishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anscombre, J.-C., Ducrot, O. L'argumentation dans la langue. Bruxelles: Mardaga, 1983.
2. Austin, J. L. How to Do Things with Words. Oxford: Clarendon Press, 1962.
3. Grice, H. P. Logic and Conversation. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1975.
4. Kramsch, C. Language and Culture. Oxford: Oxford University Press, 1998.
5. Mieder, W. Proverbs: A Handbook. Westport: Greenwood Press, 2004.
6. Norrick, N. R. How Proverbs Mean. Berlin: Mouton de Gruyter, 1985.
7. Permiakov, G. L. Основы структурной паремии. Москва: Nauka, 1988.
8. Savory, T. The Art of Translation. London: Cape, 1968.
9. Searle, J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
10. Teliya, V. N. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. Москва: Shkola “Yazyki russkoy kultury”, 1996.

11. Xayrullayeva, N. Maqollar va ularning lingvokulturologik xususiyatlari. Toshkent: Fan, 2015.
12. Xudoyberganova, D. Pragmatika va til birliklari. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.